

**DALVARZINTEPA YODGORLIGINING SHO'RCHI TUMANI TURIZM
SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY VA MADANIY
AHAMIYATI**

**Abdirayimova O.X - Termiz Davlat Universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi
2-kurs magistranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Dalvarzintepa arxeologik yodgorligining Sho'rchi tumani turizmidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mazkur tarixiy maskanning hudud iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'siri, ayniqsa turistik xizmatlar, mahalliy aholi bandligi va hududiy infratuzilma rivojiga qo'shayotgan hissasi o'rganildi. Maqolada yodgorlik negizida madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish Sho'rchi tumanining turistik jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, hududning iqtisodiy faolligini kuchaytiruvchi muhim omillardan biri ekanligi asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: Sho'rchi, Dalvarzintepa, Kushon davri, muzey, turizm, tarix, madaniy, arxeologik, taqinchoqlar.

**THE ECONOMIC AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF THE
DALVARZINTEPA MONUMENT IN INCREASING THE TOURISM
CAPACITY OF THE SORCHI DISTRICT**

**Abdirayimova O.X - Termez State University Geography Department
2nd year master's student**

Abstract. In this article, the role of Dalvarzintepa archaeological monument in the tourism of Shorchi district is scientifically analyzed. During the research, the influence of this historical place on the economy of the region, especially the contribution of tourist services, employment of local population and the development of regional infrastructure was studied. In the article, it is justified that the development of cultural-historical tourism on the basis of monuments is one of

the important factors that increase the economic activity of the region, along with increasing the tourist attractiveness of Shorchi district.

Keywords: Shorchi, Dalvarzintepa, Kushan period, museum, tourism, history, cultural, archaeological, jewelry.

KIRISH. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, ayniqsa tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda. Bu borada Surxondaryo viloyati, xususan Sho‘rchi tumani hududida joylashgan qadimiy arxeologik yodgorliklar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ular nafaqat milliy tarixni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, balki hududning turistik salohiyatini oshirishga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, Dalvarzintepa yodgorligi Kushon davriga oid eng yirik arxeologik markazlardan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu yodgorlikdan topilgan moddiy madaniy namunalari hududda qadimdan rivojlangan shaharsozlik, savdo va madaniy aloqalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada Dalvarzintepaning Sho‘rchi tumani turizm salohiyatini rivojlantirishdagi iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yodgorlikni turizm resursi sifatida samarali foydalanish orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, mahalliy aholi bandligini oshirish hamda madaniy merosni keng targ‘ib qilish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Asosiy qism. Dalvarzintepa qadimgi shahar xarobasi sifatida Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumani hududida, tuman markazi Sho‘rchi shahridan taxminan 10 km shimoli-sharqda joylashgan muhim arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 47 gektarni tashkil etib, bu esa hududning o‘z davrida yirik shahar markazlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Mazkur yodgorlik ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Devorlarning qalinligi ayrim hududlarda 10 metrga yetishi shahar mudofaa tizimining yuqori darajada rivojlanganini anglatadi. Dalvarzintepa tarkibiga shoh saroyi joylashgan qal‘a hamda shaharning asosiy yashash qismi kiradi.



1-rasm. Dalvarzintepa harobasi.

Dalvarzintepa yodgorligini ilmiy jihatdan o‘rganish ishlari XX asrning 60-yillaridan boshlab izchil ravishda olib borila boshlagan. 1959 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida “Tasviriy san’at va me’morlik” bo‘limi negizida “O‘zbekiston san’atshunosligi ekspeditsiyasi” tashkil etilib, aynan shu ekspeditsiya tomonidan Dalvarzintepada dastlabki arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. 1967-yildan e’tiboran yodgorlik hududida keng ko‘lamli arxeologik qazishma ishlari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu ilmiy izlanishlarda bir qator yetuk mutaxassislar faol ishtirok etdi. Jumladan, ekspeditsiya rahbari sifatida G.A. Pugachenkova, arxeologlar T. Belyayeva, B. Turg‘unov, E.V. Rtveladze, shuningdek restavratorlar V. Lunev, N. Sotnikova va X. Xusnutdinxo‘jayevlar muhim ilmiy natijalarga erishganlar.

2019-yil mahalladagi 43-umumta’lim maktabiga yaponiyalik professor Kyudzo Kato nomi berilib, buyuk qadimshunosning noyob topilmalari o‘rin olgan muzey tashkil etildi. Ayni paytda olim yashagan hovlini ta’mirlab, uning hayotini aks ettiruvchi uy muzeyiga aylantirish bo‘yicha loyiha ishlari olib borilmoqda. 43-umumiy o‘rta ta’lim muassasasi negizida Kyudzo Kato nomidagi yapon va ingliz tillarini chuqur o‘rganishga ixtisoslashtirilgan «Yosh arxeologlar» maktabining nizomi tayyorlanib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralari ko‘rilmoqda.

Qolaversa 2022-yilda Sho'rchi tumanining turizm imkoniyatlarini yanada oshirishga ko'maklashuvchi "Kushon turizm bekati" ham o'z ish faoliyatini boshladi. Bekat o'ziga xos dizaynda qad rostlagan bo'lib, barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish, tashrif buyuruvchilarning belgilangan turizm manzillariga qulay, xavfsiz hamda yuqori sifatli servis ko'rsatilgan holda yetib borishlariga xizmat qilish maqsadida faoliyat boshlagan bekatda 24 nafar yoshning bandligi ta'minlangan.



2-rasm. Kushon turizm bekati.

Ushbu turizm bekati shunchaki to'xtash joyi emas, balki yo'lovchilar va sayyohlar uchun barcha zarur sharoitlarni o'zida mujassam etgan majmuadir. Bekatda quyidagi xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

Milliy va zamonaviy oshxona: Mehmonlar vohaning eng sara taomlaridan bahramand bo'lishlari mumkin.

Dam olish hududlari: Uzoq yo'ldan charchagan sayyohlar uchun shinam va qulay xonalar hamda dam olish burchaklari.

Savdo do'konlari: Surxondaryo hunarmandlarining qo'l mehnati mahsulotlari va esdalik sovg'alari (suvenirilar) savdosi.

Infratuzilma: Zamonaviy sanitar-gigiyenik shoxobchalar va transport vositalari uchun qulay to'xtash joylari (parkovka) mavjud.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Dalvarzintepa yodgorligi Sho‘rchi tumani turizm salohiyatini oshirishda muhim iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tarixiy yodgorlik nafaqat Kushon davri sivilizatsiyasining noyob namunasi sifatida, balki hududga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etuvchi muhim turistik obyekt sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Yodgorlik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish hamda aholi daromadlarini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Дальверзинтепе. Кушанский город на юге Узбекистана / Г.А. Пугаченкова, Э.В. Ртвеладзе, Б.А. Тургунов и др.; Отв. ред. Л.И. Ремпель. – Ташкент: Фан, 1978. – 238 с.
2. Pugachenkova G.A. Les trésors de Dalverzine-tepe. – Leningrad: Éditions d’art Aurore, 1978. – P. 53.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 58.
4. Пидаев Ш.Р. Поселения кушанского времени Северной Бактрии. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 7.